

---

## Farg'ona shahridagi boshqaruv kompaniya rahbarlari ilmiy seminarda ishtirok etishdi

Ma'lumki, aholi turmush darajasi va sifatini oshirishda kommunal sohaning o'rni juda katta. Bu holat tarmoq faoliyatini to'g'ri tashkil etish va uning samaradorligini oshirishga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Uy-joy kommunal xo'jaligi aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Toshkent Arxitektura-qurilish universitetida "Boshqaruv tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish va maqbul iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish" yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar bilan bir qatorda sohada yetarli tajribaga ega bo'lgan boshqaruv kompaniyalari rahbarlari ishtirok etishdi.

Respublika darajasida o'tkazilgan seminarda Farg'ona shahrida faoliyat olib borayotgan "Kommunal qurilish ta'mir", "Obod Tarona", "Saffort konsensus kommunal" hamda "Max bunyodkor" boshqaruv kompaniyalari rahbarlari bugungi kundagi faoliyatlari, mavjud muammolar va ularning samarali yechimi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tdilar.

2022-11-19 20:35:43